O‘zMU Tarix fakulteti II bosqich talabasi

Toshxo ‘jayev Sh.

Turkistonda jadid ma’rifatchiligi va uning maqsadlari

Ona yurtimiz mustaqillikka erishgach, o’ziga xos milliy rivojlanishining strategiyasi asosida ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarida , jumladan: o’zlikni anglash, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarni chuqur idrok etish, asrab-avaylash va xalqqa yetkazish, yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda nihoyatda ulkan ishlar amalga oshirildi. Aynan, ma’naviy hayotni yuksaltirishda hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan maxsus dasturlar muhim rol o’ynadi.

Madaniy-ma’naviy yuksalishning mas’uliyatli vazifalarini amalga oshirishda tarix fani alohida o’ringa ega. Tarixni xolisona o’rganish, uni haqqoniy manbalar asosida qayta tiklash masalasida O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni ta’kidlagan edi: “Tarix xotirasi-xalqning, jonajon o’lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o’zlikni anglashni, ta’bir joiz bo’lsa, milliy iftixorni tiklash va o’stirish jarayonida g’oyat muhim o’rin tutadi”[1].

Tarixning o’z qonuniyatlari mavjud. Har bir davlat o’z tarixi davomida tug’ilish, o’sish, avj nuqtaga yetish va sekin-asta tanazzulga yuz tutish jarayonlarini boshidan kechiradi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkiston jadidchiligi tarixi nihoyatda ziddiyatli va murakkab davrlardan biridir. Mustamlakachlik sharoitida jamiyatning barcha sohalari inqiroz holatida edi. Ana shunday sharoitda davlat, tuzum,

[1] *И.Каримов*. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т. “Ўзбекистон”, 1997, 140-бет.

boshqaruvni isloh etish, Turkistonda hukm surgan favqulodda qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy yangilanishlar qilish, pirovardida, milliy mustaqillik g’oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o’z oldiga qo’ygan harakat sifatida, tarixiy vaziyat taqozosi bilan jadidchilik, ma’rifatparvarlik namoyondalari maydonga kelishdi. Rossiya imperiyasi amaldorlari va mahalliy hukmdorlar zulmi ostida ikki yoqlama ezilgan Turkiston aholisining og`ir ijtimoiy-siyosiy ahvoli, madaniy va iqtisodiy jihatdan qoloqligi, mazkur ahvoldan qutilish yo`llarini izlash jadidlar faoliyatining asosiy harakatlantjruvchi omili bo`ldi.

Jadidchilik Turkistonda XIX asrning oxirlarida maydonga kelgan, XX asr boshlarida shakllanib, qisqa muddatda o’zining haddi a’losiga ko’tarilgan, 1917-yilgi bolsheviklar to’ntarishidan keyin ham sotsialistik diktatura o’rnatilgunga qadar o’z mavqe va yo’nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy harakat sifatida xarakterlidir. U ijtimoiy turmushning barcha jabhalarini qamrab olgan edi. Mubolag’asiz aytish mumkinki, mazkur davrda yuzaga chiqqan na siyosiy, na madaniy biror hodisa yo’qki, uning e’tibor va ta’sir doirasidan chetda qolgan bo’lsin. “Jadidchilik”ning asosida “jadid” so’zi yotadi. “Jadid”ning ma’nosi “yangi” demakdir. U shunchaki “yangi” yo bo’lmasa, “yangilik tarafdori” degani emas. Balki “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma’nolarni o’zida mujassam etadi.

“Ellik yildan beri, - deb yozgan edi Fitrat, - ezildik, tahqir etildik. Qo’limiz bog’landi. Tilimiz kesildi. Og’zimiz qoplandi.

Yerimiz bosildi, molimiz talandi. Sharafimiz yemirildi, nomusimiz g’asb qilindi. Insoniyligimiz oyoq osti qilindi. Tuzimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har bir buyruqqa bo’ysundik. Butun borlig’imizni berdik”[2]. Turkistonni Rossiyaning xom-ashyo manbayiga va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilishi, ayovsiz talanishi va qashshoqlanishi jadidlarning ham, milliy burjuaziyaning ham nafratini uyg’otdi. Bu holat ularda ona yurtning iqtisodiy mustaqilligini tiklash g’oyasi va kurashini shakllantirdi. Yurt ozodligi uchun jonini tikkan jadidlar bor imkoniyatlarini ishga solgan holda kurashdilar. Podsho qo’shiniga qarshi chiqib bo’lmasligini yaxshi tushungan holda, xalqni oldin vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, uni ma’rifat bilan qurollantirishga harakat qildilar. XX asr boshlarida bu harakat tezlik bilan rivojlanib ketdi. Jadidchilikning ko’zga ko’ringan vakillari – Munavvarqori Abdurashidxon o’g’li, Ubaydulla Asadullaxo‘ja o‘g‘li, Abdulla Avloniy, Toshpo‘lat Norbo‘taboyev (Toshkent), Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hoji Muin Shukrullo, Abdulqodir Shakuriy (Samarqand), Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo’jayev, Abdurauf Fitrat, Ubaydulla Xo’jayev (Buxoro), Ashurali Zohiriy, Po‘lat Soliyev, Obidjon Mahmudov (Qo‘qon), Nosirxonto’ra Kamolxonto’rayev, Is‘hoqxon Ibrat (Namangan) kabilar bu harakatning yetakchilari edi.Turkiston jadidlarini birlashtirishda “jadidlarning rahbari” deya tan olingan Mahmudxo‘ja Behbudiyning xizmati beqiyos bo‘ldi.

Jadidchilik oqim emas, harakat. Ijtimoiy, siyosiy, ma‘rifiy harakat. Yaqingacha ham u faqat ma‘rifatchilik harakati deb kelindi. Bu ataylab qilingan edi. Maqsad- jadidchilikning doirasini toraytirish, sotsialistik- kommunistik mafkuradan boshqasi keng

[2] “Шарқ юлдузи”, 1992 йил, 10-сон, 173 б.

xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Aslida esa:

1) jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi;
2) mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi;
3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi.[3]

Jadidchilik tarkibini yosh jihatdan tahlil qilish natijasida, haqiqatdan ham, yoshlar dunyoqarashi o‘z aksini topganligiga guvoh bo‘lamiz. 1910-yil jadidlar safini – 13 yoshdan 36 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etgan. Jadidchilik rahbari M.Behbudiy o‘sha paytda 36 yosh bo‘lgan bo‘lsa, Cho‘lpon endigina 13 yoshda edi. Afsuski, ularning hech biri siyosiy ta‘qiblar tufayli keksalik yoshigacha yetib yashamaganlar. Turkistondagi siyosiy partiyalar faoliyatini yaxshi o‘rgangan fransuz razvedkachisi mayor Lyakosta 1906-yilda o‘z mamlakatiga yo‘llagan hufyanomasida bunday yozgan edi: “Turkiston o‘lkasidagi eng e’tiborli va kelajagi porloq siyosiy kuch sotsial-demokrat (bolshevik va mensheviklar) yoki sotsial inqilobchilar (eserlar) , yo kadet va liberallar emas, balki o‘zbek jadidlaridir”[4].

Jadidchilik ma‘rifatparvarlikdan to qudratli siyosiy harakatgacha bo‘lgan murakkab rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Yetilib qolgan muammolarni hal etishdagi dastlabki yo‘l sifatida ma‘rifatparvarlik harakati yuzaga keldi. Bunday masala

[3] Б.Қосимов. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Тошкент. “Маънавият” 2002
[4] Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Тошкент. ”Университет” 1999, 33-б.

qo‘yilishiga asosiy sabab, jadidlarning o‘zlari dastlab talaba yoshlar edi. Ular ham Sharq, ham G‘arb madaniyati yutuqlarini egallashga intildilar, o‘qidilar va o‘zgalarni ham shunga da‘vat etdilar. Ular bunday islohotlarni o‘tkazish zaruratini nafaqat nazariy jihatdan isbotlab berdilar, balki yangi usuldagi maktablar, kutubxonalar, o‘quv zallari ochib darsliklar yozib o‘z g‘oyalarini amalga oshirishga katta kuch sarfladilar. O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o’z ma’ruza va maqolalarida – yurti uchun, xalqi uchun jonini fido qilgan jadidlarimiz hayoti biz uchun o’rnak, yoshlarni istiqlol, vatanparvarlik, millatparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega, ularning bosib o’tgan kurash yo’lini o’rganish lozim, deya ta’kidlaganlari barchamizga ma’lum.